
Tuman hokimi fermer xo'jaliklari dalalaridagi g'o'za parvarishini ko'zdan kechirdi

Iyul oyi dehqonchilik taqvimiga ko'ra, hosilni taqdiri hal bo'ladigan oyiga to'g'ri keladi. Bu oydan so'ng Asad oyi xalqimizning "Asad — ekiningni yasat" degan ajoyib maqolidan ham anglash mumkinki, hosil taqdiri hal bo'ladigan bu oyda fermer va dehqonlar zimmasida ulkan mas'uliyat turibdi. G'o'za parvarishidagi eng muhim pallada amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlarning o'ziga xos jihatlarini bekamu ko'st ado etish, ekinni tom ma'noda "yasatish" kerak.

Ana shu maqsadda tuman hokimiva mutasaddi tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda tumandagi fermer xo'jaligi dalalaridagi g'o'za parvarishini ko'zdan kechirdi. Bunda birinchi shart ekinni suvsiz qoldirmay, vaqtida to'yintirishdir. Shuning uchun mazkur mas'uliyatli davrda fermer va mutaxassislar, mirobu mexanizatorlar, entomologlar o'z ishiga o'ta jiddiy yondashmog'i zarur», — dedi tuman hokimi.

Tuman hokimi 1-sektor hududidagi fermer xo'jaliklari maydonlaridagi g'o'zalarning parvarishi, agrotexnik ishlovlarga e'tibor qaratdi va har bir maydondagi qarov va begona o't bosgan g'o'za maydonlari fermer xo'jaligi rahbarlarini ogohlantirib tanqid ostiga oldi. Kamchiliklar yuzasidan rahbarlarga individual tarzda galdagi kechiktirib bo'lmas amaliy chora-tadbirlar bo'yicha vazifalar qo'ydi.

Rishton tuman hokimligi axborot xizmati

2022-08-03 17:09:14